



## **ASRIY LIRIKASIDA G‘OYA VA MAVZU UYG‘UNLIGI**

*Fayzullayev Zavqiyjon Qobiljon o‘g‘li,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Eron hududida yashab, ijod qilgan turkiynavis shoir Asriy Tabriziy asarlarida g‘oya va mavzu uyg‘unligi haqida so‘z boradi. Tadqiqotda Asriy ijodda salaflardan ta’sirlangani, mavzu mundarijasining miqyosi, xususan, yor vasfi, ishq iztirobi va oshiq holati bayoni singari abadiy mavzularga o‘ziga xos tarzda yondashib, o‘z g‘oyalarini noan’anaviy tarzda ifodalagani qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** *Navoiy, Fuzuliy, Asriy, tamsil, o‘ynor, husni ta’lil, vor, yo‘x, kelmishlardaniz, tasavvuf, qo‘shtmo, musanno, fuzuliyona uslub, noodatiy talqin.*

### **ГАРМОНИЯ ИДЕИ И ТЕМЫ В ЛИРИКЕ АСРИ**

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о гармонии идеи и тематики в творчестве тюркоязычного поэта Асрия Тебризи, который жил и творил на территории Ирана. Исследование представляло собой сравнительный анализ того, как на творчество столетней давности повлияли предшественники, масштаб содержания темы, в частности, того, как йор Васфи, автор описания страданий и состояния любви, уникальным образом подошел к вечным темам и выразил свои идеи нетрадиционным способом.

**Ключевые слова:** Навои, Физули, столетие, представление, пьеса, Хусейн, вор, ор, приди, мистика, не добавляй, Мусанно, физулианский стиль, необычная интерпретация.

### **HARMONY OF IDEA AND THEME IN THE LYRICS OF THE ASRI**

**Annotation.** This article talks about the harmony of Idea and theme in the works of turkiynavis poet asriy Tabrizi, who lived and worked on the territory of Iran. The study was a comparative analysis of how century-old creativity was influenced by predecessors, the scale of the content of the topic, in particular, as yor Wasfi, the statement of the anguish and the state of love, approached eternal topics in a unique way and expressed their ideas in an unconventional way.

**Keywords:** Navoi, Fuzuli, century, representation, play, Hus Ta'lil, vor, or, come, mysticism, do not add, Musanno, fuzulian style, unusual interpretation.

**Kirish.** XVII asrda forsiy adabiyotning “beshigi” bo‘lgan Eron hududida yashab, ijod qilgan turkiygo‘y va turkiynavis shoirlar orasida Asriy Tabriziy qalamiga mansub asarlar alohida ahamiyatga ega. Ma’lumotlarga ko‘ra, bizga uning bor yo‘g‘i 33 ta g‘azali (shundan 4 tasi g‘azali musanno), 1 ta muxammasi, 1 ta pandnomasi va 2 ta qo‘shmo she’ri yetib kelgan [6]. Mazkur g‘azallar, muxammas va qo‘shmo she’rlar, asosan, ishqiy, tasavvufiy va falsafiy ruhda bitilgan bo‘lsa, tabiiyki, pandnoma didaktik mazmunda yozilgan. Asriy g‘azallarini diqqat bilan o‘qigan o‘quvchi ularda turkiy mumtoz adabiyot darg‘alari – Alisher Navoiy, ayniqsa, Muhammad Fuzuliydan kuchli ta’sirlanish borligini darhol payqaydi.

Masalan, Navoiyning yor yuzida silkinib turgan zulfni suv bilan o‘ynab turgan hindubachaga o‘xshatib, tamsil san’ati usulida yozgan go‘zal g‘azali bor:

“Zulfiing ochilib orazi diljo‘ bila o‘ynar,  
Xindubachae sho‘xdurur, suv bila o‘ynar” [1: 82].

(Ma’nosi: Sochlaring yoyilganda dilga yoquvchi yuzing bilan o‘ynashadi – bu bamisoli (qop-qora) hind bolasining suv bilan sho‘xchan o‘ynashishiga o‘xshaydi.)

Ushbu o‘ynoqi g‘azaldan ilhomlangan Fuzuliy:  
“Saboden gul yuzingda sunbuli pur pechu tob o‘ynar,  
Sonarsan par ochib, gulshanda bir mushkin g‘urob o‘ynar” [7: 95], –

degan baytda radif va obraz tanlashda Navoiyga g‘oyibona taqlid qilgan. (Ma’nosi: Shamol esganda sening gulday yuzing bilan jingalak sochlaring o‘ynashadi – bu xuddiki gulshanda qanotlarini yozib, qora qarg‘a uchganga o‘xshaydi.)

Qarangki, Asriy bisotida ham “O‘ynor” radifli g‘azal bo‘lib, shakli va o‘qilishida o‘ynoqiligi nuqtayi nazaridan Navoiydan o‘rnak olgani yaqqol seziladi:

Ul kimsaki, zulfi siyahi yor ila o‘ynor,  
Ganjinayi husn uza yoton mor ila o‘ynor.

(Ma’nosi: Yorning qora sochini o‘ynagan inson bamisoli xazinada yotgan ilon bilan o‘ynashgan bo‘ladi.)

Navoiyning xalq maqoliday ong-u shuurimizga singib ketgan “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur” degan xalqchil satrlari Asriy talqinida yangicha hayot topgan, desak yanglishmaymiz:

Bilmayursan, chekinma, so‘r doim,  
So‘rmayon kimsa o‘lmamish olim.

Ta’kidlash lozimki, Asriy Navoiydan ko‘ra, Fuzuliydan ko‘proq mutaassir bo‘lgani asarlarida, asosan, fuzuliyona uslub ustuvor bo‘lganida, qolaversa, ozarbayjon tili talaffuzi, o‘g‘uz lahjasidagi “cho‘x”, “yo‘x”, “gelib”, “chixor”, “vor” singari so‘zlardan keng foydalanganida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Asriyning rubobiy she’rlari – g‘azallari, muxammas va qo‘shmo she’rlari an’anaga ko‘ra ishqiy mavzuda, aniqrog‘i, ma’shuq ta’rifi va hasbi hol – oshiqning yorga yozg‘irishi haqida bitilgan. Ammo tan olish joizki, Asriy nazmiy “repertuar”ida mavzular odatiy bo‘lsa-da, aksar hollarda ifoda, talqin noodatiyidir.

Misol uchun, mumtoz adabiyotda shoirlar qizlar yuzini ko‘pincha oyga mengzashadi. Lekin bu borada Asriy boshqa yo‘ldan borib, shunday deydi:

Moh ilan mahliqo bayninda,

Farq vor arzdin samoya qadar, ya’ni oy yuzli go‘zal bilan oyning o‘zini taqqoslasangiz, “arzdin samoya qadar” – yerdan osmonga qadar farq bor. Sodda qilib aytganda, hatto go‘zallik timsoli bo‘lgan oyga yor bilan husn bo‘yicha bahslashish borasida yo‘l bo‘lsin, deyilmoqda.

Yoki:

Qadina sarvi xiromon dedilar shoirlar,

Man diyaram obi hayotin avji favvorasidur.

Asriy yorning qaddini aksar shoirlar “sarvi xiromon” – chiroyli sarv daraxtiga o‘xshatishsa, men ulardan farqli o‘laroq, yorning bo‘y-u bastini “obi hayotin avji favvorasi” – tiriklikning manbayi bo‘lgan suvdan iborat favvoraning eng baland nuqtaga ko‘tarilgan pallasiga o‘xshataman, demoqda.

Yana bir bayt:

G‘amzan-la o‘lub mast, zaqan chohina dushdim,

Ot halqayı gesuni, ki aftodayi chohim.

Asriy chizgan manzaraning go‘zalligini qarang: lirk qahramon – oshiq qalbi yorning “g‘amzası” – noz-u karashmasidan mast bo‘lib, uning “zaqan chohi” – iyagidagi chuqurchaga tushib, asir bo‘lgan. Lekin oshiq bu “choh”da qolib ketmaslik uchun ma’shuqqa qarata arqon o‘rnida unga “ot halqayı gesu” – soch halqasini otishini so‘rayapti. Shoир bu o‘rinda husni ta’lil san’atidan foydalangan.

Bugungi kunda ayrim zamonaviy ayollarimizning jarrohlik amaliyoti bilan lablarini shishirib, notabiy holatda yurishlari, afsuski, go‘zallik mezonlaridan biriga aylanib qoldi. Otabobolarimiz hayotida, xususan, ular yuksak tafakkurining mahsuli bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda esa chiroy talabi tamoman boshqa bo‘lgan. Ya’ni, mahbubning labi qanchalik ingichka, hatto ko‘rinib, ko‘rinmasa, shunchalik go‘zal va maftunkor bo‘lgan. Bu borada Asriy lirk qahramoni yorining “dahani”, aniqrog‘i, labining shu darajada nozikligidan “dudog‘i yo‘qmikan?!” degan “iyhom” – shubhaga borib shunday deydi:

So‘rdum sana mankim, dahanin vormi yo yo‘xmi?

San vor o‘lonni yo‘x deyub iyhma dushurdun.

Navbatdagi baytlar:

Na kofirsanki, yoxdin din-u iymonim,

Na otashsanki, man otashparast o‘ldim.

Labi la’lin ko‘randan etma hayratkim,

Na may ichdim, nadan sog‘arbadast o‘ldim.

Asriy asarlaridagi oshiq din-u iymonidan ayirgani uchun yorni goh kofirga yo‘ysa, gohi uni otash, o‘zini esa o‘sha otashga sig‘inadigan otashparast deydi. Ba’zida esa mayxo‘r bo‘lmasa-da, yorning labini ko‘rgan zahoti sarxush bo‘lishini ishqdan deb biladi.

Chin oshiqning fe’li ajabtovur bo‘ladi – ishq qanchalik mashaqqat tug‘dirmas, oshiq undan mosuvo bo‘lishni xohlamaydi. Agar yor yo‘lida qurbon bo‘lish lozim bo‘lsa, oshiq shu zoti darrov emas, balki uzoq vaqt qiynalib jon berishni ixtiyor etadi. Yo‘qsa, Asriy quyidagi satrlarni bitarmidi:

Bir g‘amzayi tag‘oful ila olma jonnikim,  
Rohinda vermak istaram jon uzun-uzun.

Asriyning “Avval” radifli g‘azalida ishq ko‘yida yurgan insonning mahbub nazariga tushish, visoliga yetishish bo‘yicha qilayotgan fidoyiligi, jiddu jahdi juda daqiq tasvirlangan:

Karam qil, e guli tar, partavi ruxsora mushtoqingiz,  
Ki, yonmish ko‘nlumiz ul otasha parvonadan avval.

Sabo vorsin, parishon aylasin kokullarin, jono,  
Ko‘nul murg‘i duror bolu pari-la shonadan avval.

Mazkur baytlarda oshiq go‘zalning “partavi ruxsori” – porlab turgan yuzi o‘tiga o‘zini parvonadan oldin urganini, sabo sochlarini “parishon aylagani” – to‘zg‘itganida “ko‘nul murg‘i” – ko‘ngil qushi tarash uchun “shona” – taroqdan avval uchib kelganini eslatib, muruvvat kutadi.

Munaqqidlardan biri “She’riyat bu inson fazilatlarini faqat madh etish yoki qusurlarini faqat rad etish emas, balki unga bor holatini ko‘rsatish uchun ko‘zgu tutish” degan edi. Asriy ushbu adabiy oltin qoidani chuqur bilgani uchun bir g‘azalida insonning naqadar yusakligi va tubanligini barobar qalamga oladi, ya’ni, odamzotning u yoki bu toifaga kirishiga asosiy omil bo‘lgan ruhiy xilqat – ko‘ngil evrilishlarini boricha ta’riflaydi:

Gahi oqil, gahi hayron, gahi shaydo ko‘nuldur bu,  
Gahi obid, gahi ma’bud, gahi mavlo ko‘nuldur bu.  
Gahi masjidda qoyimdur, gahi dayr ichra doimdur,  
Gahi o‘lmoqda der muslim, gahi tarso ko‘nuldur bu.  
Gahi kufrona moyildur, gahi iymona qoyildur,  
Gahi “Lo” der edi isror, gahi “Illo” ko‘nuldur bu...

Insonning mana shunday murakkab ruhiyatini taftish qilishga kirishgan shoir o‘zining kimligini bir baytda muxtasar bayon qiladi:

Zohiran qilsak nazar, yo‘xdur gadodan farqimiz,  
Botinan ko‘rsan bizi, shohona kelmishlardaniz.

Aksar xalqlarda “Aqliga qarab kutib olib, kiyimiga qarab kuzatishadi” degan maqol bor. Yoki yanada chuqurlashsak, shunday shohlar bor – ma’nан gado va shunday gadolar bor – ma’nан shoh, degan ma’nolar ham sizib chiqadi. Asrlar davomida o‘zgarmay kelayotgan bu achchiq haqiqatlarni Asriy o‘ziga xos tarzda yuqoridagi baytga darj qila olgan. Asriyning lirik qahramoni duch kelgan voizning xitobiga jimgina qulq soladigan emas, balki tafakkur

qiladigan, ya’ni ishq otashi oldida uchqunday ko‘rinadigan jahannamning olovini farq eta oladigan oshiq bo‘lib, o‘rni kelganda o‘z e’tirozini ham chiroyli bayon eta oladi:

Voizo! Bahs aylamak o‘lmaz jahannamdan biza,  
Otashi ishqqa azaldan yona kelmishlardaniz.

Mashhur mumtoz shoirimiz Muhammadrizo Ogahiy “Ustina” radifli g‘azalida shohni quyoshga o‘xhatib yozgan shohbayti [8: 44] bor:

Ey shoh, karam aylar chog‘i, teng tut yomon-u yaxshini,  
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Ya’ni “Ey shoh, yaxshilik qilayotganingda yomon bilan yaxshini ajratmasdan yaxshilik qilgin, chunki quyosh nuri obod va vayron manzillarga barobar tushadi” deyilmoqda. Asriy yuqoridagi fikrni davom ettirar ekan, Ogahiydan farqli o‘laroq shoh obrazida davlat rahbarini emas, balki husn mulkining shohi – ma’shuqqa murojaat qiladi:

Shaho! Ahli muruvvat o‘ldug‘in ma’lumdir, ammo

Meni begonaya bu noz-u istig‘no nadan avval?  
(Ma’nosi: Ey shoh, sening muruvvat qiluvchilardan ekanliging ma’lum, lekin nimaga menga muruvvat qilmasdan, noz-u istig‘no qilyapsan?).

Asriy nazarida muhabbat va yorni mufassal vasf qilish imkonsiz vazifa bo‘lib, bu borada ungacha va undan keyin yozilgan devonlar ham yetmaydi:

Asriy tamom aylamaz vasfi dilbari,  
Madhida yozsa daftar-u devon uzun-uzun.

Xulosa qilib aytganda, Asriy asarlarida mavzu jug‘rofiyasi keng bo‘lib, unda yor madhi, oshiq holati bayoni, inson ichki kechinmalari, fitratining teran tasviri yorqin ifodalangan. Shuningdek, Asriy abadiy mavzularga o‘ziga xos tarzda yondashib, o‘z g‘oyalarini noan’anaviy izhor qilishga muvaffaq bo‘lgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. Bir pari paykar g‘ami: (G‘azallar, mustazod, qit’alar, ruboilar, tuyuqlar, fardlar, “Mahbub ul-qulub”dan, “Nazm ul-javohirdan, “Arba’in”dan). Toshkent: “Sharq”, 2006.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati/Tuzuvchi: E. Fozilov. To‘rt tomlik. T.1. Toshkent, 1983.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati/Tuzuvchi: E. Fozilov. To‘rt tomlik. T.2. Toshkent, 1983.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati/Tuzuvchi: E. Fozilov. To‘rt tomlik. T.3. Toshkent, 1984.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati/Tuzuvchi: E. Fozilov. To‘rt tomlik. T.4. Toshkent, 1985.

6. Asriy “Devon”idan sahifalar (g‘azallar). Nashrga tayyorlovchi J.Mir o‘g‘li. Birinchi nashr. – Tehron: “Chamanoro” nashriyoti, 1946.
7. Muhammad Fuzuliy. “Qalb gavhari”. – Toshkent: “HIOL-NASHR” nashriyoti, 2014.
8. Ogahiy. Sarv qomat ko‘rmisham. Devon. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007.